

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

**QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK,
CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK VA
TARJIMASHUNOSLIK**

2024 Vol. 3 (3)

**www.tsuull.uz
www.uzlctscls.tsuull.uz**

CHOG'ISTIRMA TILSHUNOSLIK VA LUGATSHUNOSLIK

**"Alpomish" dostonida toponimik
leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlari**

Shaxnoza Asqarova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada bugunning dolzarb masalalaridan - til va madaniyat, ularning o'zaro munosabatlari, o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'alarini mujassamlagan nodir asar "Alpomish"ning inglizcha tarjimasidagi toponimlarning lingvomadaniy jihatlari haqida fikr yuritiladi. Noqardosh ikki til orasidagi ko'prik bo'lmish tarjimonning bu boradagi qobiliyati, tarjima qiyinchiliklari va ularni bartaraf qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi. Asar o'zbek xalqining qadim hayot tarzini o'zida mujassam qilgan, epik san'atkorlar tomonidan asrlar davomida og'izdan-og'izga o'tib kuylab kelingan eng go'zal asar hisoblanishi bugungi kunda nafaqat til va adabiyot ahliga, balki barcha boshqa soha vakillariga ham sir emas. Bu doston o'zbek tilshunosligidagina emas, balki dunyo dostonchiligida o'zining zalvorli mavqe-maqomiga ega ekanligi haqida yozilgan bo'lib, misollar asosida toponimik leksemalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik, toponimik leksemalar, qiyinchilik, mulohaza.*

"Alpomish" dostoni matnida ko'p marotaba o'z aksini topgan onomastik leksik qatlamlardan biri - bu antroponimlardir: Alpinbiy, Alpomish/Hakimbek, Anqa polvon, Bodom bikach, Barchinoy, Boybo'ri, Boysari, Bektemir, Muhammad Mustafo, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Baxshoyish, Jamshidu Ahmad, Ko'sa sinchi, Ko'kaldosh, Ko'kaman, Tovka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsuroy kaniz, Surxayil, Toychixon, Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy oqsoqol, Hakimbek, Yusuf Farmonqul Fozil shoir Yo'ldosh o'g'li Qayqubot kal Qaldirg'ochoyim Qalmoqshoh. Ular ushbu asarning inglizcha tarjimasida tegishli ravishda quyidagi ko'rinishda

¹ Asqarova Shaxnoza Kamolidinovna - Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti doktoranti (DSc).

E-pochta: asqarovash85@mail.ru

ORCID ID: 0009/0006/6892/4324


Iqtibos uchun: Asqarova, Sh.K. 2024. "Alpomish" dostonida toponimik leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlari", *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3 (3): 134-141.

transliteratsiya yo'li bilan berilgan: *Alpinbiy, Alpomish/Khakimbek, Anqa brave, Barchinoy, Boybury/Boyburi, Boysary/Boysari, Bodom bekach, Bektemir, Muhammad Mustafa, Dobonbiy, Yodgor, Jilovdor, Bakhshoyish, Jamshid and Ahmad, Kusa, Kukaldosh, Kukaman, Tavka, Layli, Majnun, Mirkulol, Suqsur, Surkhayil, Toychikhan, Ulton/Ultontoz, Qorajon, Qultoy, Yartiboy, Khakimbek, Josef, Farmonqul, Fozil Yuldosh-oghli, Kayqubod, Qaldirghoch/ Qaldirghochoyim, Qalmoqshah.*

Shunday qilib, ular kelib chiqishi nuqtayi nazaridan o'zbek (15 ta), arab (9 ta), fors-tojik (11 ta) tillariga taalluqli so'zlardir.

O'zbek dostonlari lug'at qatlamidagi antroponimik leksemalarning lingvistik jihatlari tadqiqi bilan shug'ullangan G.Jumanazarova shunday yozadi: "Lisoniy vositalarning reallikni ifodalashini va aksincha, borliqni semantik predmetlar orqali ifodalash va umumlashtirish jarayoni mavjudligini talqin qilish semasiologik va onomasiologik yo'nalish sifatida izohlanadi. Semasiologik tahlil lug'aviy birliklarning semantikasi va u bilan bog'liq hodisalar nuqtayi nazaridan o'rganishdir". Tadqiqotchi "Apomish" dostonidagi antroponimik leksemalarni semantik-funksonal nuqtayi nazardan tahlil etib, jumladan, o'z e'tiborini inson tana a'zolari nomlariga qaratgan.

"Alpomish" dostoni matnida qo'llanilgan antroponimlar borasida olib borilgan kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, ular shakl va ma'no jihatdan xilma-xildir. Dostonda bosh (Hakimbek=Alpomish, Barchin) va ikkinchi darajali (Dobonbiy, o'g'li Alpinbiy, o'g'illari Boybo'ri, Boysari; Boybo'ri, qizi Qaldirg'och) qahramonlar antroponimik leksemalardan hisoblanadi. Tadqiqotchilar tomonidan zikr etilgan shajara daraxtidan kelib chiqib, uning inglizcha tarjimasida berilgan toponimlarni bayon qilamiz:



Dobonbiy. *Dobonbiy* – epik nom: "Yotgan yerida bir qurxayt tortdi, to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga yetdi, hamma yilqilar jam bo'lib turibdi. *Dobonbiy* bobosidan qolgan qo'riqni Hakimbekning qo'liga berdi. Hakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi" (Alpomish, b. 113). E.Begmatov: "*Dovon, Dovonboy* antroponimlarini tarixiy-etimologik manbasiga ko'ra, o'zbekcha ismlar sirasiga kiritadi va 'dovondan oshsin, ya'ni o'lmasin yoki dovonda tug'ilgan bola' deb izohlaydi". B.Do'stqorayev fikricha, *Dobonbiy* 'dev' va 'mon' o'zaklaridan tarkib topgan. 'Ulkan dev' degani, 'Dev' o'zagi tovush o'zgarishiga uchrab, 'dob' tarzida kelgan, 'mon'ning 'm' tovushi talaffuzda tushib qoldirilgan (2. 224). *Dovon* so'zi o'zbek tilida 'tog' va tepalikning baland, ammo oshib o'tsa bo'ladigan qulay joyi; oshuv' va ko'chma 'keyingi ish va yutuqlarga yo'l ochib beradigan ulkan ish; erishilgan va erishilajak qiyin marra', 'xayoliy, ruhiy marra, maqsad, intilish' ma'nolarini anglatadi. Tarixiy asarlar va o'zbek shevalarida so'z *dobon* variantida ham qo'llanadi: *Tonglasig'a qor va chopqun turdi. Erta ko'chub o'shul dastur bila qor tepib, yo'l yasab dobon ustug'a chiqtuk.* ("Boburnoma", 147-b.)

Alpomishning shajarasidagi *Dobonbiy* so'zi *dovon*, yuksaklik ma'nosini anglatadi. Demak, bu ism boboga nisbatan shunchaki tanlanmagan, chunki bunday kishining avlodi Alpomishday o'g'lon bo'lishi kerak edi. "Yetti pushtini surishtirish" bizning xalqimizga xos an'ana bo'lgani bois, qahramonning ota-bobosi ham kamida o'zidek buyuk shaxslardir. Xususan, *Dobonbiy* hayotda katta ishlarni amalga oshirgan, yuksak marralarga erishgan qahramonning ramziy timsoliy obrazi hisoblanadi. Darhaqiqat, bu obraz doston boshlanishida tilga olinib, keyin umuman voqealarda ishtirok etmaydigandek tuyuladi go'yo. Biroq bu obrazga keyingi jumlar, keyingi voqealar oydinlik kiritadi. Mutarjim ushbu nomni quyidagicha tarjima qilgan: "*Dobonbiy* – epic name. A name of Khakimbek's grandfather, that means nek, pass between the mountain (1. 25)".

Mazmun xuddi o'zbek tilidagidek chiqqan, lekin fikrimizcha, tarjima oxiridagi ayrim so'zlarning izohli lug'ati bo'lgani boisdur balki, ismlar haqida ma'lumot yetarli darajada berilmagan. Pirovardida, ingliz zabon o'quvchiga nafaqat bu, balki barcha antroponimlar ma'nosini mukammal tushuntirib berish mushkul bo'lib qoladi. Tarjima muallifi bu yerda izohlarni yanada ko'proq va batafsilroq yoritisa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Alpinbiy. *Alpinbiy* singari o'g'lonning dunyoga kelishi tasodifiy hodisa emas. Bunga *Dobonbiy* chekkan zahmat, xalqparvarlik, donishmandlik millatga bo'lgan sadoqat sabab bo'lgan. "*Alpinbiy*

asli bahodir, polvon degan ma'noni anglatuvchi 'alp' va katta ma'nosini beruvchi qo'shimcha 'mon'dan tashkil topgan, Alpmon so'ziga qo'shilgan 'biy' esa turkiy kavmlarda 'qozi' yoxud 'oqsoqol' ma'nolarini bildirgan ". Inglizcha tarjimada mazkur antroponimga izoh berilmagan.

Boybo'ri. Boysari. *Boybo'ri* bilan *Boysari* ismlari tarkibidagi 'boy' birligi ularning shajaraviy mansubligini ko'rsatib turibdi: "*Dobonbiydan Alpinbiy* degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. *Alpinbiydan* tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini *Boybo'ri* qo'ydi, kichkinasining otini *Boysari* qo'ydi. *Boybo'ri* bilan *Boysari* – ikkovi katta bo'ldi. *Boysari* boy edi, *Boybo'ri* esa shoy (shoh) edi, bul ikkovi ham farzandsiz bo'ldi" (Alpomish, b. 5).

Ingliz tiliga tarjimada esa bu kabi shaxs nomlari, albatta, transliteratsiya yo'li bilan amalga oshirilgan: "From *Dobonbiy* a son named *Alpinbiy* was born. From *Alpinbiy* there was born two sons, the eldest was named *Boybury*, the youngest was named *Boysary*. Both *Boybury* and *Boysary* had grown together. *Boysary* was a rich man, *Bobury* was a shah, but both had no children" (Alpomish, p. 19).

Dostonda ikki qismdan iborat bo'lgan antroponim – "*Boybo'ri, Boybo'ri* (o'z.) – qar. *Boy* va *Bo'ri*" hanuzgacha ism sifatida o'zbek tilida qo'llanilib kelinmoqda:

1) "*Boy* (o'z.) – davlatli, badavlat yoki xukmron, hokim. "*Boy*" so'zi bilan boshlangan qo'shma ismlarning (*Boymurod, Boymshammad, Boynazar*) qisqargan shakli" ;

2) "*Bo'ri* (o'z.) – kadimiy odatga ko'ra cog' bo'lsin, mahkam bo'lsin deb bo'rining jag'idan (terisidan) o'tkazib olingan bola yoki tish bilan tug'ilgan bola. Shakllari: *Bo'riboy, Bo'rijon, Bo'ribek, Bo'ritoy, Bo'riqul*" .

Demak, bu nom qo'shma so'z bo'lib, uning har ikki qismi ham insonni ulug'ligi, boyligi, boshliqligi kabi yuksak odamiylik fazilatlarini o'zida mujassam etishini niyat qilib o'g'il bolalarga qo'yiladigan ism hisoblangan.

Shu bilan birga, mazkur antroponim o'zbek tilida toponim sifatida ham qo'llaniladi: "*Boybo'ri* – qishloq, Sariosiyo tumani. "*Alpomish*" dostoni qahramonlaridan biri *Boyburi* nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak. *Boybo'ri* asli urug' bo'lishi ham mumkin. Masalan, qirg'izlarda *boybure, qozoq* va *qoraqalpoqlarda boybura* urug'i bo'lgan" .

Ingliz tilidagi tarjimada *Boybo'ri* onomastik leksikasi ikki xil –*Boybury* [boiburai], *Boyburi* [boiburi] ko'rinishlarida berilgan. Ta'kidlash lozimki, ikkinchi shakl doston asliyatida matnida ko'proq

uchraydi:

Duty came from *Boyburi* for the property,
Give me advice the kin of ten thousand folk (Alpomish, p. 20).

Boysari. Ushbu ism ham ikki qismdan iborat:

1) "*Boy* (o'z.) – davlatli, badavlat yoki hukmron, hokim.
"*Boy*" so'zi b-n boshlangan qo'shma ismlarning (*Boymurod*,
Boymuhammad, *Boynazar*) qisqargan shakli".

2) "*Sari* (o'z.) – aynan: sariq rangli bola, sariq sochli bola yoki
taniqli, mashhur; oqsuyaklar, aslzodalar avlodiga mansub".

Mazkur qo'shma ism "*Alpomish*" dostoni matnida faol
qo'llanilgan antroponimlardan biri hisoblanadi, chunki zakot
mojarosidan keyingi voqealar rivoji bevosita shu personaj bilan
bog'liq bunga quyidagi misol tasdiq bo'la oladi: "Bu so'zni eshitib,
o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida poyga betdan turib, bir chapanitob
boybachchasi aytdi: Ey Boybo'ri bilan Boysari! Bu to'y o'g'illining
o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi. Sening nimangdan
qaytadi?!"

Keltirilgan misol ingliz tiliga quyidagi ko'rinishda tarjima
qilingan: "Having heard these words a humble rich guy said: "Hey,
Boybury and *Boysary*! This party is a feasting party which will be
repaid off by a person who has a son, by a person who has a daughter,
who you have to repay the party?!" (Alpomish, p. 19). Yuqorida
ta'kidlab o'tilganidek, Boysari antroponimi ikki xil – Boysary
[boisara'i] hamda Boysari [boisari] shakllarida ingliz tiliga tarjima
qilingan.

Bizningcha, tarjimon asar asliyatida qo'llanilgan *Boybo'ri*
ismini ingliz tili orfoepiya qoidalariga ko'ra, *Boyburi* [boiburi]
shaklida o'g'irsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki *Boybury*
[boiburai] so'zining oxirida kelgan -y harfi talaffuzni o'zgartirib
yuborishi mumkin.

Shunday ekan, antroponimlarni bir tildan ikkinchi tilga
o'girish jarayonida bir xillikka erishish zarur, jumladan, ushbu
usuldan biz tahlil qilayotgan "*Alpomish*" dostonini o'zbek tilidan
ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ham.

Hakimbek. *Hakimbek* – Hakim (ar.) – bilimdon, aqlli, dono,
donishmand. Bu nom Allohning sifatlaridan biridir. Keyinchalik
Hakimbek pahlavon va botirligi uchun *Alpomish* deb nom oladi.
Alpomish antroponimiga sof turkiycha alp so'zi lug'aviy asos bo'lgan
bo'lib, "mard, pahlavon kishi" demakdir. Asarning bosh qahramoni
ismi aqlli va bilimli hukmdor ma'nosini beradi. Asar asliyati bo'yicha:

Hakimbekning ko'z yoshi sel bo'ladi,

Bu so'zdaytib ot ustida boradi:

Mening bilan hamro bo'lgan Boychibor,
Mendan burun sen topishding, jonivor.(316)

Tarjima: *Khakimbek's tears flooded his eyes.*

He was riding thinking of this opinion:

Boychibor, you went as my companion.
Before me you've met yours, dear beast. (259)

Alpomish (o'z) antroponimi tahliliga kelsak, 'Alp, paxlavon, kuchli, chaqqon, qo'rqmas, botir' murakkab ism bo'lib, "Alpomish, Alp - qahramon tug'ilishidan oldin ota-onasining farzandsizligi aslida ramziy ma'noga ega bo'lib, gap bu yerda saltanatni mustahkamlaydigan, parokanda elni yana birlashtiradigan yangi avlod - Alpning tug'ilishi haqidadir". Uzoq kutilgan va allohdan pirlar, avliyolar vositasida so'rab olingan farzand ko'p hollarda alohida hislatga ega bo'ladi. B.Yunusovning fikricha, "Alpomish"da Alpinbiydan qolgan, ko'lda zang bosib yotgan kamonni faqat Hakimbek ota oladi. Alplik kamoning ko'lda zang bosib yotishi undan oldingi avlod o'z vazifasini oxirigacha bajara olmaganidan dalolat beradi. Bunday vazifani yangi avlod - alplargina oxiriga yetkazadi".

Ingliz tilida mazkur antroponimga ushbu asar tarjima muallfi tomonidan berilgan ta'rif quyidagicha: *Alp* - a strong, brave, undefeatable, knight, fighter, man, *Alpomish* - Name of the main, leading hero of the poem, his original name is Hakimbek, sometimes called as Hakim, Alp Hakim, Hakimkhan, Hakimjan. Demak, tarjimon mana shu ta'rifni ta'rifni yuqorida nomi zikr etilgan lug'atlarga asoslangan holda keltirgan. O'zbek xalqi madaniyatiga xos bo'lgan asriy an'analarni o'zida mujassam etadigan mazkur asardan bir inson onasining qornida paydo bo'lishi, tug'ilish, yashashi o'limigacha bosib o'tadigan yo'ldagi barcha ma'lumotlarni olish mumkin. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodiga tegishli dostonlarning ichida antroponim, toponim, zoonim, fitonim kabi lingvistik birliklarga boy asar hisoblanadi. Uning tarjimasini va tarjima qilish usullari, muammolari hamda ularning yechimlari esa bugungi kunning muhim jabhalaridandir.

Adabiyotlar

Алпомиш. Достон. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар: Ҳоди Зарифов ва Тўра Мирзаев. -

- Тошкент: Фан, 1999. - 820 б.
- Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – Москва: Государственное издательство художественной литературы, 1947. – 520 с;
- Лобачева Н. П. Различные обрядовые комплексы в свадебном церемониале народов Средней Азии и Казахстана. Домусулманская верования и обряды в Средней Азии.-М.: Наука. 1975. - С. 302-320.
- Мирзаев Т. Эпос и сказитель. – Ташкент: Фан, 2008.- С. 70-160.
- Путилов Б. Эпос и обряд // Фольклор и этнография. – Л.: Наука. 1974. - С.76.
- Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986, 65-119 б.

Lingvocultural peculiarities of toponymic lexemes in the epic "Alpomish"

Shakhnoza Askarova ¹

Abstract

In this article, in order to determine the antiquity of a work of folklore or words in the vocabulary, it is good to study its existence in the works of neighboring peoples or in the language of that nation. In this regard, the fact that the main events related to the content of the "Alpomish" epic exist in the form of fairy tales, narratives, and epics in Altai, Tatar, Bashkird, Kazakh, Karakalpak and other Turkic nations indicates that the work was created in extremely ancient times. The fact that the work embodies the ancient way of life of the Uzbek people and is considered the most beautiful work that has been sung by epic artists for centuries is not only important for people of language and literature, but also for all other people. It is not a secret to industry representatives. There are more than forty Uzbek variants and different versions of this masterpiece, and each variant and version requires a lot of research. This epic is written not only in Uzbek linguistics, but also in world epics.

Key words: *epic, national oral creativity, term, lexical units, folklore.*

References

- Alpomish. Doston. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: Hodi Zarifov va To'ra Mirzayev. – Toshkent: Fan, 1999. - 820 b.

¹ Shakhnoza K. Asqarova – Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies (DSc).

E-mail: asqarovash85@mail.ru

ORCID ID: 0009/0006/6892/4324

For citation: Asqarova, Sh.K. 2024. "Lingvocultural peculiarities of toponymic lexemes in the epic "Alpomish". *Uzbekistan: Language and Culture* 3 (3): 134-141.

- Iirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos.
- Moskva: Gosudarstvennoye izdatelstvo xudojestvennoy
literaturi, 1947. - 520 s;
- Lobacheva N. P. Razlichniye obryadovyye kompleksi v svadebnom
seremoniale narodov Sredney Azii i Kazaxistana.
Domusulmanskaya verovaniya i obryadi v Sredney Azii. M.:
Nauka. 1975. - S. 302-320.
- Mirzayev T. Epos i skazitel. - Tashkent: Fan, 2008. - S. 70-160.
- Putilov B. Epos i obryad // Folklor i etnografiya. - L.: Nauka. 1974. - S. 76.
- Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. - Toshkent: Fan, 1986, 65-119 b.